



MUSIQA RAHBARI VA UNGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Ro‘ziyeva Munisa G‘anijon qizi,

Guliston davlat pedagogika institute

Musiqa ta’limi yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola zamonaviy musiqa rahbarining roli va unga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni tahlil qiladi. Musiqa rahbari – bu nafaqat ijrochilarni bosharuvchi shaxs, balki ijodiy jarayonlarni samarali yo‘lga qo‘yuvchi murabbiy hisoblanadi. Maqolada musiqa rahbarining asosiy vazifalari, jumladan, dastur tanlash, musiqiy ijroni boshqarish, pedagogik va psixologik ko‘nikmalarni qo‘llash, shuningdek, konsert va tadbirlarni tashkil etish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa rahbari, zamonaviy talablar, pedagogik mahorat, ijodiy yondashuv, rahbarlik ko‘nikmalari, texnologik savodxonlik, musiqiy liderlik, jamoani boshqarish

РУКОВОДИТЕЛЬ МУЗЫКАЛЬНОГО КОЛЛЕКТИВА И СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К НЕМУ

Аннотация: Данная статья анализирует роль современного музыкального руководителя и современные требования, предъявляемые к нему. Музыкальный руководитель — это не только лицо, управляющее исполнителями, но и наставник, эффективно организующий творческий процесс. В статье рассматриваются основные задачи музыкального руководителя, включая подбор репертуара, управление музыкальным исполнением, применение педагогических и психологических навыков, а также вопросы организации концертов и мероприятий.



Ключевые слова: музыкальный руководитель, современные требования, педагогическое мастерство, творческий подход, управленческие навыки, технологическая грамотность, музыкальное лидерство, управление коллективом.

MUSIC LEADER AND MODERN REQUIREMENTS FOR THEM

Annotation: This article analyzes the role of a modern music leader and the modern requirements imposed on them. A music leader is not only a person who manages performers, but also a mentor who effectively organizes the creative process. The article examines the main tasks of a music leader, including selecting programs, managing musical performance, applying pedagogical and psychological skills, as well as organizing concerts and events.

Keywords: music leader, modern requirements, pedagogical skill, creative approach, leadership skills, technological literacy, musical leadership, team management.

Kirish:

Musiqa o'z tabiatiga ko'ra insonlar hayotini, ularning turli voqealarga nisbatan munosabati va ichki kechinmalarini xilma xil tovush bo'yoglari orqali badiiy obrazlar vositasida tasvirlaydi. Musiqa bolalar hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish bilan birga ularni nafosat olamiga olib kiradi.

Asosiy qism:

1. Musiqa rahbari kim?

Musiqa rahbari – bu professional musiqachi bo'lib, orkestr, xor, ansambl yoki boshqa musiqiy jamoalarni boshqaradigan shaxsdir. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:



- Ijrochilikni boshqarish: Orkestr yoki xorda har bir musiqachining ijrosini muvofiqlashtirish.
- Repertuar tanlash va tayyorlash: Kontsert dasturini shakllantirish, yangi asarlarni o'rganish va ijro etish.
- Musiqiy talim va tarbiya: O'quvchilar yoki jamoa a'zolariga musiqiy bilim va texnikani yetkazish.
- Ijodiy yo'nalish: Yangi musiqiy uslublar, interpretatsiyalar va ijodiy yechimlarni ishlab chiqish.

2.Musiqa rahbariga qoyiladigan zamonaviy talablar

Musiqa rahbari, avvalo, bolalarni, bolalar fiziologiyasi, adabiyot, ona tili fanlari hamda o'z kasbiga oid musiqa o'qitish metodikasi, fortepiano, vokal darsligi, musiga nazariyasi, solfedjio, ritmika, dirijyorlik kabi fanlarni puxta bilishi lozim. Musiqa rahbarining bog'cha hayotidagi o'ri begiyosdir. U o'z kasbiga mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, keng dunyo qarashga ega inson bo'lmog'i lozim. Musiqa rahbariga qo'yiladigan talablar:

1.Texnik va nazariy bilimlar

Musiqiy nazariya va tarixni chuqur bilish.

Notani o'qish va yozish, aranjirovka qilish qobiliyati.

Orkestr yoki xor asboblarini, ularning imkoniyatlarini bilish.

2. Boshqaruv va liderlik qobiliyatlari

Jamoani samarali boshqarish, motivatsiya berish.

Konfliktlarni hal qilish, ijodiy muhit yaratish.

Ishni rejalashtirish va vaqtni boshqarish.



3. Texnologik savodxonlik

Zamonaviy musiqiy dasturlar (MIDI, Sibelius, Finale) bilan ishlash.

Audio va video yozuv, studiya texnikasini tushunish.

Onlayn platformalarda jamoani olib borish imkoniyati.

4. Ijodiy va san'atkorlik qobiliyatlari

Yangi asarlar yaratish yoki mavjudlarni yangi uslubda ijro etish.

Emotsional ifoda va interpretatsiya mahorati.

Turli musiqiy janrlarni bilish va uyg'unlashtira olish.

5. Kommunikatsiya va madaniyatlararo ko'nikmalar

Xorijiy musiqachilar bilan ishlashda til va madaniyatni tushunish.

Tomoshabinlar bilan samarali aloqada bo'lish.

Media va ijtimoiy tarmoqlarda o'z jamoasini targ'ib qila olish.

3. Yoshlikda olingan bilim toshga oyilgan naqshdir

Bolaning uch yoshidan yetti yoshgacha bo'lgan davrini maktabgacha davri deb hisoblaymiz. Tajribalardan ma'lumki, bolalarda ushbu davrda paydo bo'ladigan taassurotlar izi umrbod saqlanib qoladi. Bu bolaning aqliy va jismoniy jihatdan tez o'sish va dunyoni bilish, atrof-muhitga o'z munosabatini bildirish istagi kuchayib boradigan davrdir. Shu sababli tarbiyachi va ota-onalar bolalarni har tomonlama yetuk bo'lib o'sishlariga jiddiy e'tibor berishlari kerak. Musiqa rahbari tomonidan yaxshi tashkil etilgan musiqiy tarbiya bolalarni barkamol inson bo'lib yetishishlariga ijobiy ta'sir etadi. Bu ishda bolalar bog'chasi pedagogik jamoasining ishtiroki va faolligi juda muhimdir, Musiqa mashg'ulotlarini gigiyenik talablarga javob beradigan darajada olib borish musiga rahbarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.



4. Mavsumiy va siyosiy bayramlar otkazish metodikasi

Bayram estaliklar bolalarni badiiy tarbiyalash shakllaridan biridir. Musiqa rahbari bu ishga ijodiy yondashib to'g'ri tashkil qilgan bayram va bayram shaklidagi tadbiri (o'yin-kulgi soatlari, konsertlar, sayillar, sport bayramlari, nafas soatlari, ko'ngilochar o'yinlar, bayram estaliklari) bolalarni kichik yoshidan boshlab ma'naviy ozuqa olishga, tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Musiqa rahbari zamon bilan ham nafas odam tashlashi lozim. U zamonaviy texnik vositalardan foydalana olishi, ko'rgazmali qurollar tayyorlashi bilan birga DTS dasturiga muvofiq milliy musiqamiz, qadriyatlarimiz, cholg'u so'zlarimiz tarixi, mumtoz kuylarimiz, o'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari - terma, lapar, yalla, alla singari asarlarini mukammal o'rganib, kichkintoylarning yoshidan kelib chiqqan holda tushuntiradigan, qizigtira oladigan, olijanob, mehnatkash inson bo'lishi kerak. Shuningdek, uning yangi pedagogik texnologiyalarni musiqa mashg'ulotlariga tatbiq etib, zamon bilan ham nafas qadam tashlamog'i ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavsumiy bayramlar – bu yil fasllari, tabiiy hodisalar yoki mehnat bilan bog'liq bayramlardir. Ular odatda qadimdan an'anaviy tarzda nishonlanadi va xalqning madaniy hayotida katta o'rin tutadi.

Xususiyatlari:

Tabiat yoki fasllar bilan bog'liq bo'ladi.

Ko'pincha diniy yoki folkloriy ildizlarga ega bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi ishlarini tugatish, hosil yig'ish, fasllar almashuvi bilan bog'liq.

Misollar:

Navro'z – bahor bayrami, yangi yilni tabiat uyg'onishi bilan nishonlash.



Mehnat bayrami (1 may) – mehnatning qadri va ishchilar bayrami, bahorda nishonlanadi.

Hosil bayrami – qadimiy qishloq xo‘jaligi an‘analari, hosil yig‘ib olish bilan bog‘liq.

Bahor va yoz bayramlari – bahor faslining boshlanishi (mart-aprel), yozning boshlanishi (iyun).

Siyosiy bayramlar – davlat va siyosiy hodisalarni, tarixiy voqealarni eslashga bag‘ishlangan rasmiy bayramlardir. Ular odatda hukumat tomonidan belgilangan rasmiy dam olish kunlari bo‘lib, milliy birlik va tarixiy xotirani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xususiyatlari:

Milliy yoki siyosiy ahamiyatga ega.

Tarixiy voqealar, mustaqillik, davlat tuzilishi bilan bog‘liq.

Ko‘pincha rasmiy tadbirlar, paradlar va marosimlar bilan nishonlanadi

Misollar

Mustaqillik kuni – davlat mustaqilligi e‘lon qilingan kunni nishonlash. Masalan, O‘zbekistonda 1-sentabr.

Konstitutsiya kuni – davlat konstitutsiyasi qabul qilingan kun.

Respublika kuni – respublika tashkil topgan kunni eslash.

Harbiy bayramlar – armiyaga bag‘ishlangan bayramlar, masalan, 14-yanvar (O‘zbekiston Qurolli Kuchlari kuni)..



Xulosa

Musiqqa metodikasi - ta'limning muhim yo'nalishi bo'lib, u o'quvchilarning nafaqat musiqiy ko'nikmalarini, balki ma'naviy-axloqiy sifatlarini ham shakllantiradi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash, milliy va jahon tajribasini uyg'unlashtirish musiqiy ta'lim sifatini oshirishning asosiy omilidir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Karimova M. "Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish metodikasi". – Toshkent. 2018.
2. Saidov, A., Qodirov, B. "Tarbiya nazariyasi va amaliyoti". – Toshkent, 2019.
3. Yo'ldoshev, J. "Madaniy tadbirlar rejissurasi". – Toshkent. 2017.
4. Abdullayev, H. "Pedagogik texnologiyalar va tarbiyaviy ishlar". – Toshkent. 2020.
5. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hujjatlari" – Toshkent.
6. G. Saripova, Sh. Yakubova "Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqqa o'qitish metodikasi"-Toshkent,2007.
7. Abdullaeva R, "Musiqqa o'qitish metodikasi"-Toshkent, 2016.